

## **"KECHA" ORZU QILGAN YORQIN KUNDUZLAR**

**Shaxobiddinova Azizaxon Shavkatjon qizi**

*Andijon Davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** XX asr boshlarida xotin-qizlarning taqdiri, hayot tarzi va bugungi kunga kelib ularga yaratilgan sharoit va imkoniyatlar haqida fikr mulohazalar yuritilgan.

**Tayanch so'zlar:** yoshlar ongi, adabiyot, jadidchilik, ma'rifat, manfaat, badiiy ahamiyat, fojia, bolalik, tasarruf, siyosat, millat, jamiyat, intizom, mustabit, "sati", huquq, "Zulfiya", demokratik qarashlar.

**Аннотация:** В начале XX века возникли размышления о судьбах женщин, их образе жизни, условиях и возможностях, созданных для них сегодня.

**Ключевые слова:** Молодежное сознание, литература, модернизм, просвещение, интерес, художественная ценность, трагедия, детство, менеджмент, политика, нация, общество, дисциплина, независимость, "сами", закон, "Зулфия", демократические взгляды.

**Abstract:** At the beginning of the 20th century, thoughts arose about the fate of women, their lifestyle, conditions and opportunities created for them today.

**Keyword:** Youth consciousness, literature, modernism, enlightenment, interest, artistic value, tragedy, childhood, management, politics, nation, society, discipline, independent, "sati", law, "Zulfia", democratic views.

Yurtimizda barcha sohalarda jumladan, davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, tibbiyat, ishlab chiqarish, ta'lif, hattoki, harbiy sohada ham ayollar faoliyatini ko'rishimiz mumkin.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek,-“Xalqimiz azal-azaldan ona siyimosini, ayol zotini Yaratganning ulug' ne'mati, tengsiz mo'jizasi deb biladi, uni hamisha ardoqlab-asrab yashaydi”. Ma'lumki, har qanday jamiyat va davlatning qay darajada xalqparvar hamdaadolatli ekani uning xotin-qizlarga bo'lgan munosabati va g'amxo'rliqi bilan belgilanadi. Mamlakatimizda xalqni rozi qilish maqsadi yo'lida xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, ko'plab orden, yuksak unvon va medallar, hamda, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan xotin-qizlarimiz

taqdirlanmoqda. Oliy ta'lif muassasalarida ham ayollar uchun keng imkoniyatlar yaratilib berilmoqda.<sup>168</sup>

Tarixdan bilishimiz mumkinki, nafaqat bizning yurtimizda, balki, butun dunyoda ayollarning huquqlari, erkinliklari uchun juda uzoq vaqt kurashilgan. Misol tariqasida: Arab qabilalarida tug'ilgan qiz farzandlarning tiriklayin ko'mib yuborilishi, Hinditondagi "sat" odati(ya'ni eri vafot etganida uning bevasi yonida tiriklayin dafn qilingan), juda ko'plab davlatlarda ayollarni qarz evaziga berib yuborilishi, sharq mamlakatlarida ayollarning qul bozorlarida sotilishi, qadimgi Rim imperiyasida dastlabki demokratik qarashlar vujudga kelgan bo'lsada, lekin, ayollar bu huquq uchun uzoq kurashganligi, hattoki ayrim xalqlarda ayollar qurbanlik qilinganligi haqida ma'lumotlar bor.

Muqaddas islom dinimiz ayol zotini naqadar ulug'lab, e'zozlab, ehtirom ko'rsatishga buyurgan. Hozirgi davrda ma'naviyatli, diyonatli har bir kishi ushbu so'zlamni chuqur anglab yetmoqda. Bir necha yuz yil ilgariga ko'z tashlasak, insonlarning naqadar qiyinchilik ichida yashagani, ularning erki va huquqlarining poymol qilinganligini ko'rish imiz mumkin. Sho'ro davri zulmlari yoshlar ongiga qattiq ta'sir o'tkazgani bizga tarixdan ma'lum. Aniqroq qilib aytaksak, adabiyotlarimiz bizga bu davrni tasavvur qilish uchun asosiy manbaa vazifasini o'taydi.

Zero, Jadidchilikning yirik namoyondalaridan biri bo'lgan Abdulhamid Cho'lpon aytganidek,-"Adabiyot chin ma'nosi ila o'lgan, so'ngan, o'chgan, yarador ko'ngilga ruh bermak uchun, faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydurgan, o'tkir yurak kirlarini yuvadigan toza ma'rifikat suv, xiralashgan oynalarimizni yorug' va ravshan qiladigan, chang va tuproqlar to'lgan ko'zlarimizni artib, tozalaydurgan buloq suvi bo'lganlikdan bizga g'oyat kerakdур".<sup>169</sup>

Sir emaski, shunday asarlar bor: bir o'qilib kitobxon yodidan ko'tarilib ketadi yohud shunchaki adibning manfaati tufayli dunyo yuzini ko'rgan buyurtma mahsulot sifatida nomlanuvchi "ijod namunalari" vaqt o'tib o'z-o'zidan yo'qlikka yuz tutaveradi. Aksincha, shunday asarlar bo'ladiki, vaqt o'tsada, o'zining muxlisini, asosiysi, badiiy ahamiyatini sira yo'qotmaydi.

"Kecha" hayoti naqadar og'ir va ayanchli... Chunki "Kecha" so'zi nafaqat tarixni, balki xalqimizning qorong'i zulmat-mustamlaka davrini eslatadi. Ayniqsa, yosh qizlarning kelajagi, ularning qanday yashashi, barchasi oldindan belgilab qo'yilganligi e'tibor tortmay qo'ymaydi. Misol tariqasida adabiyotimizning yirik namoyondalaridan bo'lmish A.Qodiriyning "Mehrobdan chayon" yohud A.Cho'lponning "kecha va kunduz"

<sup>168</sup> <https://yuz.uz/uz/news/shavkat-mirziyoev-ayollarga-bitte-yaxshilik-qilsak-onta-yaxshilik-bolib-qaytadi>

<sup>169</sup> A.Cho'lpon. "Kecha va kunduz" Birinchi kitob-KECHA. "Ilm-ziuyo-zakovat" T.;2019y.4-bet

romanlaridagi Ra'noning taqdiri va Zebi fojiasini olishimiz mumkin. Hayotning eng shirin oni bo'lgan bolalik ular uchun faqatgina orzu va shirin tush bo'lib qoladi. Sababi ular yashagan davr va ular bo'ysungan tizm ahvoli birmuncha og'ir edi desak adashmagan bo'lamiz.

Asarni o'qigan kitobxon ko'z o'ngida beixtiyor asar qahramonlari gavdalanadi. Ra'noning Qo'qon xoniga tortiq qilinishidan tortib, suvsizlikdan qurib borayotgan gul misoli Zebining chorasizlik ichida qolishi inson ko'nglini xira qiladi. Xalqning g'aflat uyqusida yotgan holati ota-onalar obrazlari orqali yorqin tasvirlab berilgan. Mamlakat xotin-qizlarini istagancha tasarruf etishi, bunga qarshi kelguchilar tilasa kim bo'lmasin, rahmsiz jazo berishi romanning mavzusidir. Oilada ayol kishining o'rni eng quyi darajada ekanligi, har qanday mavzu bo'lmasin ularning fikri inobatga olinmasligi bu tuzumning qanchalar ayanchli ahvolda ekanlididan dalolat berardi. Xolbuki, ayol-qizlardan tashqari oddiy xalq ham siyosatdan norozi edi. Chunki, xalqning, millatning erki, o'z taqdiri boshqalar nazorati otida edi.

Millat fidoiylari bo'lgan jadidlar nafaqat o'sha davr yoshlarini ma'rifatli qilishga, balki butun jamiyat hayotini farovon qilishga, oilaviy ahloqiy munosabatlarni tartibga solishga, tobora kuchayib borayotgan nohaqliklarga qarshi jon-jahdi bilan kurashishgan. "Bir oilaning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi, mamlakat va millat ham shunday kuchli va tartibli bo'ladi. Agarda bir mamlakatning aholisi axloqsiz va johillik bilan oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo'l qo'ysa, shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi"<sup>170</sup>-Abdurauf Fitratning ushbu so'zlari orqali o'sha davr mustabit tuzumidan boxabar bo'lishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, jadidchilikning yirik namoyondalarining badiiy asarlaridan ilhomlanib o'z oldimizga qo'ygan maqsad va vazifalarimizni a'lo darajada bajarishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, yosh ayol-qizlarga yaratilib berilayotgan imkoniyatlardan oqilona foydalanib, bor kuch-g'ayratimizni o'qishga, ishga, izlanishga sarflashimiz, bizga berilgan ishonchni oqlashimiz g'oyat kerakli va zarurdir. Biz yashayotgan davr, bizning mamlakatimiz insonning yetuk shaxs bo'lib kamol topishi uchun imkoniyatlar makonidir.

<sup>170</sup> D.Kenjayev va boshqalar. Tarbiya-11 darslik. Toshkent-2021.23-bet

**Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.A.Qodiriy “Mehrobdan Chayon” Toshkent. 2018-yil
- 2.A.Cho'lpon “Kecha va kunduz” romani “Ilm-ziuyo-zakovat” T.;2019y.4-bet
3. D.Kenjayev va boshqalar. “Tarbiya”-11sinf uchun darslik. Toshkent-2021.23-bet
- 4.<https://yuz.uz/uz/news/shavkat-mirziyoev-ayollarga-bitta-yaxshilik-qilsak-onta-yaxshilik-bolib-qaytadi>